

TURKISTONDA PAXTACHILIK SANOATI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI

Xaydarov I.M.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası professori, tarix fanlari doktori (DSc).

Email: izzatillakhon@gmail.com

Xolboyev Shuhrat

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası 2-kurs talabasi.

Email: shuhrat.xolboyev@tdshi.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20126818>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkistonda paxtachilik sanoatining shakllanishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy hayotga ko'rsatgan ta'siri tadqiq etilgan. Paxtachilik monokulturasining vujudga kelishi, mahalliy dehqonlarning iqtisodiy ahvoli, an'anaviy hunarmandchilikning tanazzuli va jamiyatning tabaqalanishi masalalari tarixiy-tahliliy usulda o'rganilgan.

Tadqiqotda Rossiya imperiyasi arxiv hujjatlari, gubernatorlik hisobotlari, mahalliy manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: paxtachilik, Turkiston, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik, monokultura, dehqon, ijtimoiy tabaqalanish, iqtisodiy oqibatlar, XIX asr, Farg'ona vodiysi.

THE FORMATION OF THE COTTON INDUSTRY IN TURKESTAN AND ITS IMPACT ON SOCIAL LIFE

Abstract. This article examines the formation of the cotton industry in Turkestan during the colonial period of the Russian Empire in the second half of the 19th and early 20th centuries, as well as its economic and social consequences. The emergence of cotton monoculture, the economic conditions of local peasants, the decline of traditional crafts, and the social stratification of society are analyzed through historical-analytical methods. The study draws on Russian imperial archive documents, gubernatorial reports, local sources, and contemporary scholarly literature.

Keywords: cotton industry, Turkestan, Russian Empire, colonialism, monoculture, peasant, social stratification, economic consequences, 19th century, Fergana Valley.

ФОРМИРОВАНИЕ ХЛОПКОВОДЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ТУРКЕСТАНЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ОБЩЕСТВЕННУЮ ЖИЗНЬ

Аннотация. В данной статье исследуется процесс формирования хлопководческой промышленности в Туркестане в период колониального господства Российской империи во второй половине XIX – начале XX века, а также её экономические и социальные последствия. На основе историко-аналитического метода рассматриваются возникновение хлопковой монокультуры, экономическое положение местных крестьян, упадок традиционного ремесленничества и социальное расслоение общества.

Ключевые слова: хлопководство, Туркестан, Российская империя, колониализм, монокультура, крестьянин, социальное расслоение, XIX век, Ферганская долина.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni zabt etishi mintaqaning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishini ham tubdan o'zgartirdi.

Bu o'zgarishlarning eng muhim va uzoq muddatli oqibatlaridan biri – Turkistonda paxtachilik sanoatining sun'iy tarzda shakllantirilishi va mintaqaning Rossiya imperiyasiga paxta xomashyosi yetkazib beruvchi hududga aylantirilishi bo'ldi. Garchi Markaziy Osiyoda paxta qadimdan o'stirilgan bo'lsa-da, XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar u hududiy savdo uchun yetishtirilardi. Rossiya bosqinidan so'ng esa paxta yetishtirishning ko'lam va xarakteri tamomila o'zgardi: mahalliy dehqonlar o'z yerlarida oziq-ovqat ekinlari o'rniga tobora ko'proq paxta ekishga majbur bo'ldilar. Bu jarayon mamlakat iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlarga va keng ijtimoiy oqibatlarga olib keldi.¹

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, paxtachilik sanoatining shakllanishi oddiy iqtisodiy hodisa emas, balki mustamlakachilik siyosatining ajralmas qismi bo'lgan, Turkiston aholisining turmush tarzini, ijtimoiy tuzilishini va kelajak taqdirini belgilab bergan murakkab tarixiy jarayondir. Bu mavzuni o'rganish bugungi kunda ham ahamiyatini saqlab qolmoqda, zero, o'sha davrda vujudga kelgan iqtisodiy muammolar - monokultura, tashqi bozorga qaramlik, oziq-ovqat xavfsizligi - hozirgi O'zbekistonning agrar siyosatida ham o'z aksini topmoqda.

Maqolaning asosiy maqsadi - Turkistonda paxtachilik sanoatining shakllanish jarayonini, uning sabablari va bosqichlarini tarixiy-tahliliy usulda o'rganish, paxtachilik monokulturasining mahalliy aholi ijtimoiy hayotiga ko'rsatgan ta'sirini yoritishdir. Tadqiqotda tarixiy tahlil, qiyosiy va statistik metodlardan foydalanilgan.

Adabiyotlar sharhi

Paxtachilik tarixi va mustamlakachilik davrida Turkistondagi agrar o'zgarishlar masalasi ilmiy adabiyotlarda turli yo'nalishda o'rganilgan. Rus imperiyasi davri mualliflari – jumladan, A.I. Dmitriev-Mamonov va D.I. Subbotichn kabi tadqiqotchilar – paxtachilik sanoatining kengayishini ijobiy tarzda, mintaqaga “zamonaviy qishloq xo'jaligini” olib kelgan jarayon sifatida taqdim etgan.²

Sovet davri tarixshunosligi bu mavzuga asosan iqtisodiy jihatdan yondashgan: paxta yetishtirishning o'sishi “ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi” sifatida baholangan. Biroq bu davrda ham V.V. Bartold, P.P. Ivanov kabi olimlar paxtachilikni mustamlakachilik siyosatining quroli sifatida ko'rib chiqishga uringanlar. Mustaqillik yillarida esa O'zbekiston tarixchilari - H. Sodiqov, R. Shamsutdinov, Q. Usmonov - paxtachilikni iqtisodiy ekspluatatsiyaning asosiy mexanizmi sifatida baholashda yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqdilar.³

Xorijiy tadqiqotchilar orasida Richard Pierce, Daniel Brower va Beatrice Forbes Manz mustamlakachilik davrida Markaziy Osiyo iqtisodiyotining o'zgarishini keng tahlil qilganlar.

Ayniqsa, Seymour Becker va Adeeb Khalidning asarlarida paxta siyosatining ijtimoiy oqibatlari va mahalliy elitaning bu jarayondagi roli maxsus tadqiq etilgan. Ularning xulosalari ko'rsatadiki, paxtachilikni faqat iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki mustamlakachilik nazariyasi doirasida ijtimoiy va madaniy jarayon sifatida ham o'rganish lozim.

¹ Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P., Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 466 b.

² Usmonov Q. O'zbekiston tarixi: Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006. – 520 b.

³ Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998. – 480 b.

Shunday qilib, mavzu yetarli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, paxtachilik sanoatining bevosita mahalliy aholining kundalik hayotiga, oilaviy tuzilishga va ijtimoiy tabaqalanishga ko'rsatgan ta'siri hali ham yetarlicha chuqur tahlil etilmagan. Ushbu maqola ana shu bo'shliqni qisman to'ldirishga harakat qiladi.

Tadqiqotda kompleks tarixiy yondashuv qo'llanilgan. Tarixiy-genetik metod asosida paxtachilik sanoatining shakllanish bosqichlari, uning sabablari va oqibatlari izchil o'rganilgan.

Qiyosiy-tarixiy metod yordamida Turkiston tajribasi Hindiston, Misr va boshqa mustamlaka hududlardagi paxtachilik rivojlanishi bilan solishtirilib tahlil etilgan. Statistik metod esa paxta yetishtirish hajmlari, narx dinamikasi va ijtimoiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda qo'llanilgan.

Manbalar bazasi sifatida Rossiya imperiyasining qishloq xo'jaligi bo'yicha statistik to'plamlari, Turkiston general-gubernatorligining yillik hisobotlari, kolonial ma'muriyatning agrar islohotlarga oid hujjatlari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ishlatilgan. Mahalliy manbalar – xususan, XIX asr oxiri XX asr boshi jadid nashriyotlari va xotira adabiyoti – ham qo'shimcha manba sifatida ishlatilgan. Bu manbalar birgalikda tadqiqotning ishonchli daliliy bazasini tashkil etadi.

Natijalar. Paxtachilikni kengaytirish siyosatining sabablari va dastlabki bosqichi.

Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni zabt etishdan ancha oldin bu mintaqaga iqtisodiy manfaat bilan qiziqib kelgan edi. XIX asrning 60-yillarida AQShda fuqarolar urushi boshlanishi munosabati bilan G'arb bozorlarida paxta tanqisligi yuzaga keldi, Rossiyaning to'qimachilik sanoati esa xomashyo muammosiga duch keldi. Markaziy Osiyo iqlimi, ayniqsa Farg'ona vodiysi, paxta yetishtirishga juda qulay edi. Mana shu iqtisodiy manfaat Rossiyaning mintaqani bosib olish uchun harbiy-siyosiy sabablar bilan bir qatorda muhim omil bo'lib xizmat qildi.⁴

Dastlab, 1860-1870-yillarda Rossiya ma'muriyati mahalliy dehqonlarga paxta ekishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari va arzon kredit tartiblari joriy qildi. Bu davrda hali dehqonlarni majburan paxta ekishga undash siyosati yo'q edi – bozor rag'bati etarli edi. Chunki paxta narxi an'anaviy don ekinlariga nisbatan ancha yuqori bo'lib, ilk yillarda dehqonlar yangi ekindan daromad ko'rishga muvaffaq bo'ldilar. Ammo bu boshlang'ich muvaffaqiyat uzoq davom etmadi⁵.

Monokultiraning vujudga kelishi va uning iqtisodiy oqibatlari. XIX asrning 80-yillaridan boshlab, temir yo'lining qurilishi bilan bir vaqtda, Turkistonda paxta yetishtirishning ko'lami keskin oshdi. 1880-yillarda Farg'ona vodiysida paxta ekiladigan yer maydoni taxminan 200 ming desyatinani tashkil etgan bo'lsa, 1900-yillarga kelib bu ko'rsatkich 700 ming desyatinadan oshdi. Shunday o'sish bilan birga oziq-ovqat ekinlari – bug'doy, arpa, makkajo'xori - ekiladigan yer maydonlari keskin kamaydi. 1890-yillarga kelib Farg'ona viloyatida don ekinlarining yalpi maydoni 30 foizdan ko'proqqa qisqargan edi.⁶

Bu iqtisodiy o'zgarish bir tomondan mahalliy bozorni don taqchilligiga, narxlarning ko'tarilishiga olib keldi. Ikkinchi tomondan, paxta narxlari doimiy ravishda pasayib bordi: Rossiya monopolist sifatida narxni o'zi belgilardi. Dehqonlar tobora ko'proq paxta ekib, tobora kamroq daromad oldilar. Narxlar pasaygani bilan xarajatlar - suv haqqi, soliqlar, kredit foizlari - oshib bordi. Ko'pchilik dehqon xo'jaliklari koloniyal bozor tizimiga qaramlikka tushib qoldi.⁷

⁴ Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 412 b.

⁵ Шостакович С. В. Дипломатическая деятельность А. Черкасова в Средней Азии. — Иркутск, 1987. – 238 с.

⁶ Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.). — М.: Наука, 1958. — 247 с.

⁷ Brower, D. R. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. — London: Routledge Curzon, 2003. — 248 p.

Ijtimoiy tabaqalanish va dehqonlarning ahvoli. Paxtachilik sanoatining kengayishi Turkiston qishloqlarida chuqur ijtimoiy tabaqalanishga olib keldi. Paxta savdosidan eng ko'p foyda ko'rgan toifa — mahalliy savdogarlar va vositachilar (dallollar) hamda yer egalari edi.

Katta yerga ega bo'lgan boylar kredit tizimi orqali kambag'al dehqon xo'jaliklarini o'z ta'sirlariga olishdi. Kichik dehqonlar esa tobora ko'proq qarz botqog'iga tushib, o'z yerlarini ijaraga berishga yoki butunlay sotishga majbur bo'ldilar⁸.

Kolonial statistika ma'lumotlariga ko'ra, 1900-yilga kelib Farg'ona viloyatidagi dehqon xo'jaliklarining 40 foizdan ko'prog'i qarz ostida edi. Yer kontsentratsiyasi ortib bordi: yer maydonlarining katta qismi yirik yer egalari qo'lida to'plandi. Hunarmandlar – to'quvchilar, ip yigiruv ustaxonalari egalari – ham og'ir ahvolga tushib q'ldilar, zira Rossiyadan kirib kelayotgan arzon sanoat matolari mahalliy hunarmandchilik bilan raqobatlasha olmadi.

Oilaning iqtisodiy tuzilishi va ayollar mehnati. Paxtachilik ishlab chiqarishining kengayishi oilaviy mehnat taqsimotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Paxta terim mavsumida butun oila – erkak, ayol va bolalar – dala ishiga jalb etildi. Terim mexanizatsiyalashtirilmagan sharoitda esa bu nihoyatda og'ir jismoniy mehnat edi. Ayollar va bolalar terimda faol ishtirok etdi, bu esa ularning ta'lim va sog'liq imkoniyatlarini cheklab qo'ydi.⁹

Kolonial ma'muriyat bola mehnatini tartibga soluvchi qonunlarni joriy etmadi. Shuning uchun bolalar ham bahzida maktabga borish o'rniga terim ishlariga ishtirok etdi. Bu holat keyinchalik jadidlar tomonidan keskin tanqid qilindi: ular paxtachilik bilan bog'liq og'ir mehnat sharoitlarini yoshlar ta'limining yo'qolishi va xalqning ma'rifatdan uzoqlashishining asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rib chiqdilar.

An'anaviy hunarmandchilik va savdoning inqirozi. XIX asr oxirigacha Markaziy Osiyo shaharlari – Samarqand, Buxoro, Xo'qand, Marg'ilon – o'zlarining ipak va paxtali mato ishlab chiqarishi bilan butun Sharqda mashhur edi. Xususan, Marg'ilon ipak to'qimachilik markaziga aylangan bo'lib, mahalliy ustalar nafis atlaslar, adraslar va boshqa qimmatbaho matolar ishlab chiqarardi. Buxoro va Samarqandning gilam to'qish, kulolchilik va mis buyumlar ustaxonalari ham yuqori sifatli mahsulotlar bilan tanilgan edi.¹⁰

Paxta monokulturasining kengayishi bilan birga temir yo'l ham Rossiyadan va G'arbdan arzon sanoat tovarlarini olib keldi. Bu tovarlar sifat jihatidan mahalliy hunarmandchilik mahsulotlariga teng bo'lmasa ham, narxi ancha past edi. Natijada, o'rta daromadli xaridorlar asta-sekin arzon Rossiya matolariga o'ta boshladilar. Hunarmandlar daromadsiz qoldi.

Ko'pchilik ustaxonalar yopildi, mahalliy san'at va kasblar yo'q bo'lib ketish xavfiga yuz tutdi.

Sug'orish tizimi va ekologik oqibatlar. Paxtachilik ko'lamining kengayishi yangi sug'orish kanallarining qurilishini talab etdi. Rossiya ma'muriyati suv inshootlarining ba'zi qismlarini rekonstruksiya qildi, biroq bu ishlar asosan paxta yetishtirish talablarini qondirish maqsadida amalga oshirildi, mahalliy aholining suv ta'minoti manfaati emas. Sug'orish suvining notekis taqsimlanishi yangi ziddiyatlarga sabab bo'ldi: temir yo'l va paxta zavodlari atrofidagi yerlar avvaldan ko'proq suv olardi. Uzoqroq va quloq olmaydigan hududlardagi dehqonlar esa suv etishmasligidan aziyat chekdi.^[11]

⁸ Khalid, A. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. — Berkeley: University of California Press, 1998. — 335 p.

⁹ Becker, S. *Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924*. — Cambridge: Harvard University Press, 1968. — 416 p.

¹⁰ Mahmudov M, Sheripov U. *Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlar)*. – Urganch: Urganch davlat universiteti, 2013. – 136 b.

Ekologik jihatdan ham paxtachilik kengayishi o'z salbiy izini qoldirdi. Paxta tuproqni juda ko'p ozuqa moddalariga muhtoj ekin bo'lib, bir xil joy yiliga-yili paxta ekilaversa, tuproqning unumdorligi pasayadi. Kolonial davr statistikasi ko'rsatishicha, XIX asr oxiridan XX asr boshlariga qadar Farg'ona vodiysida hosildorlik ko'rsatkichlari asta-sekin pasayib bordi.

Ammo kolonial ma'muriyat bu muammoni chuqur o'rganmadi — xomashyo eksportining ko'lami uni qiziqdirdi, xolos.

Mahalliy aholining paxtachilikka munosabati. Mahalliy aholining paxtachilik sanoatiga munosabati bir xil bo'lmagan. Dastlabki yillarda, narxlar yuqori bo'lgan davrda, ko'pchilik dehqonlar bu yangi ekinni mamnuniyat bilan qabul qildi. Ammo vaqt o'tishi bilan narxlarning pasayishi, qarz muammolari va oziq-ovqat taqchilligi oshdi – va bundan norozi bo'lganlar ko'paydi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Farg'ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida norozilik harakatlari kuchaydi.

Ba'zi mahalliy ziyolilar – ayniqsa jadid harakati vakillari – paxtachilikka murakkab munosabatda bo'ldi. Bir tomondan, ular paxta daromadidan xalq ta'limi uchun mablag' topish mumkin deb hisobladi. Ikkinchi tomondan esa, paxtachilik monokulturasining xalqni qaramlikka tushirib qo'yishi va oziq-ovqat bilan ta'minot muammosi haqida ochiq yozdilar. Jadid nashrlari – “Oyina”, “Samarqand” gazetolari – bu muammolarni o'z sahifalarida ko'targan.

Xulosa

Turkistonda paxtachilik sanoatining shakllanishi – XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatining eng ahamiyatli iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlaridan biri bo'ldi. Paxta monokulturasining kengayishi mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligini zaiflashtirib, mahalliy dehqonlarni metropoliya bozori talablariga qaramlikka solib qo'ydi.

An'anaviy hunarmandchilik va savdoning tanazzuli, ijtimoiy tabaqalanishning keskinlashishi, ayollar va bolalar mehnati – bularning barchasi paxtachilik sanoatining ulkan ijtimoiy yukini ko'rsatadi. Ayni paytda paxtachilik sanoatining shakllanishi mutlaqo salbiy jarayon sifatida ham baholanmasligi kerak. U yangi ish o'rinlari, kredit infratuzilmasi va savdo aloqalarini rivojlantirishga ham hissa qo'shdi. Ammo bu “rivojlanish” asosan metropoliya manfaatlariga xizmat qilib, mahalliy aholining uzoq muddatli manfaatlarini ikkinchi o'ringa surdi.

Xulosa o'laroq shuni ta'kidlash joizki, paxtachilik sanoatini Turkiston tarixi kontekstida faqat agrar hodisa sifatida emas, balki mustamlakachilik siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi sifatida o'rganish zarur. Bu tarixiy saboqlar nafaqat o'tmishni tushunish, balki bugungi O'zbekistonda agrar siyosatni shakllantirish va iqtisodiy qaramlikdan xalos bo'lish yo'llarini izlashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P., Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 466 b.
2. Usmonov Q., O'zbekiston tarixi: Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006. – 520 b.
3. Ziyoyev H., Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998. – 480 b.
4. Qosimov B., Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 412 b.

5. Шостакович С. В., Дипломатическая деятельность А. Черкасова в Средней Азии. – Иркутск, 1987. – 238 с.
6. Иванов П. П., Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.). – М.: Наука, 1958. – 247 с.
7. Brower, D. R., Turkestan and the Fate of the Russian Empire. – London: Routledge Curzon, 2003. – 248 p.
8. Khalid, A., The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 335 p.
9. Becker, S., Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. – Cambridge: Harvard University Press, 1968. – 416 p.
10. Mahmudov M., Sheripov U., Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlari). – Urganch: Urganch davlat universiteti, 2013. – 136 b.